

INNOVATION-XO'JALIK SHARTNOMASI

-sonli

Denov tuman.

2024-yil 19-iyun

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (bundan keyin matnda «Institut» deb yuritiladi) nomidan **Raximov G'anisher Xudoyqulovich**, nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va «**GOLD-EDUCATION-XTRA "NTM."**» bundan buyon «Korxona» (tashkilot, muassasa) deb ataluvchi, rahbari **L.A. Ashurov** Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida kelishuvlarga erishdilar:

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Tomonlar o'rtasida ta'lim xizmatlari (konferensiyalar, ilmiy seminarlar, psixologik testlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy maslahatlar berish, faoliyatga oid seminar va treninglar), ilmiy ishlanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, patent, foydali modellarni joriy qilish (ularni vaqtinchalik foydalanishga berish) moliyaviy munosabatlar orqali o'zaro almashish mazkur shartnomaning predmeti sifatida belgilanadi.

2. Shartnomaning maqsadi

2.1. Tomonlar o'zaro kelishuvga muvofiq korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-innovatsion jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhit mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar, viloyat va shahar DXX, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarining tergov harakatlarida tarjimonlik qilish, tashkilotlarning boshqaruv xujjatlarini, adabiyotlarini va manbalarini tarjima qilish konsalting xizmatlari, marketing xizmatlari, ta'lim xizmatlari, sinov tajribalar o'tkazish, dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni terish bo'yicha tavsiyalar berish, ko'chat yetishtirish va ekish bo'yicha tavsiyalar berish, o'simlik urug'larini terish bo'yicha ko'rsatmalar berish, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga innovatsiyalarni joriy etishda zamonaviy innovatsion ishlanmalarni tavsiya qilish shartnomaning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

2.2. Tomonlarning ko'p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish tamoyillariga asoslanadi.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Mazkur shartnoma doirasida «Institut» quyidagilarni kafolatlaydi:

a) korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ta'lim xizmatlari ko'rsatishni o'z vaqtida ta'minlash (yetkazib berish);

b) innovatsion mahsulotni yaratish va tatbiq etish bo'yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda muammoli mavzular bo'yicha tadqiqot olib borish uchun innovatsion guruhlarini shakllantirish;

v) institut magistrantlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va pedagog xodimlarini Korxonaga stajirovkaga yuborish;

d) institutda korxona xodimlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun sharoit yaratish, korxona xodimlariga universitetning o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazidan foydalanishini ta'minlash;

e) korxona bilan hamkorlikda institutning pedagog xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va talabalari ishtirokida qo'shma seminarlar, anjumanlar, konferensiyalar, davra suhbatlarini tashkil etish.

3.2. Mazkur shartnoma doirasida korxona quyidagilarni kafolatlaydi:

a) institut tomonidan korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun kelishilgan haq so'mmasining 15 % ni oldindan va xizmatlar bajarilgandan keyin 85 % to'lovi o'z vaqtida institut hisob raqamiga o'tkazib berish;

b) korxonada innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun universitet pedagog xodimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va hamkorlikda innovatsion guruhlar shakllantirish;

v) korxona tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar va treninglarga institutning pedagog xodimlari va katta ilmiy xodim-izlanuvchilarini jalb etish;

4. Umumiy qoidalar va boshqa shartlar

4.1. Ushbu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi tomonlar kelishuviga muvofiq, dalolatnoma, asosida amalga oshiriladi.

4.2. Korxona ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun universitetning hisob rakamiga 2000 000 (ikki million) 80m
(belgilangan summa son va so'z bilan yozilishi shart)

mablag'ni shartnomada ko'rsatilgan ishlar bajarilgandan so'ng 15 kun muddat ichida o'tkazib berishi kerak.

4.3. Tomonlar mazkur shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'zlariga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlar sababli bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'tashdan ozod etiladilar.

4.4. Fors-major holatlarga oldindan ko'rib va oldini olib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan, Tomonlarning xohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan va shu bois Tomonlardan hech biriga majburiyatlarni o'tashga imkon bermaydigan holatlar kiradi.

4.5. Mazkur shartnomaga Tomonlar o'zaro kelishuv asosida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan tarzda istalgan vaqtda o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga haqli.

4.6. Mazkur shartnomaga qilingan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va Tomonlarning imzolari bilan tasdiqlanishi lozim.

4.7. Mazkur shartnomaga qilingan barcha ilovalar, qo'shimchalar va o'zgartishlar shartnomaning tarkibiy qismi deb qaraladi.

4.8. Mazkur shartnoma Tomonlar imzolagan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda 2023- yilning «31» dekabr sanasiga qadar kuchda bo'ladi.

4.9. Agar Tomonlardan hech biri shartnomaning muddati tugagunga qadar uning amalda bo'lishi borasida o'z xohish-irodasini 3 (uch) oy oldin yozma ravishda bildirmasa, shartnoma o'z-o'zidan keyingi bir yilga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

5. Nizolarni hal etish tartibi

Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolarni Tomonlar o'zaro kelishuv asosida qonuniy yo'l bilan hal etadilar. Agar tomonlar o'zaro kelisha olishmasa, nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

6. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va har bir Tomon uchun bitta nusxa topshiriladi.

7. Tomonlarning yuridik manzillari

“INSTITUT”

“GOLD-EDUCATION-XTRA” NTM

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Denov tumani. Istiqlol mahallasi.

Sh Rashidov ko'chasi 360-uy.

Tel.: +99890 2467971

BANK: milliy bank Denov filiali

X/R: 400110860222107094100350002

INN: 207272324 MFO: 00014

Rektor: G'.Raximov

MO:

Yuriskonsult Sh.Mirzaqulov.

Manzil: Denov sh. Sh. Rashidov k. 320-uy.
Tel: 912367374
Bank: Andijon Flankorbank Denov filial
X/R: 20208000300968321001
INN: 305940457 MFO: 00083.

Rahbar: A. A. Acherov.
MO:

НАҚД ПУЛЛАР ТОПШИРИЛГАНЛИГИ ТҮҒРИСИДА ҚВИТАНЦИЯ: № 49

21. июн. 2024. й.
Нақд пулни топирувчи:

Якубова Дипорам Тожиёвна

Қабул қилувчи
банк номи:

ЧЭКИ "НАМКОРБАНК" ДЕҶОВ Универсал БХО

Банк коди:

00083

Пул кириш қилинадиган ҳужжатлик субъекти номи ва ҳ/ф
ООО "GOLD-EDUCATION-XTRA"

Банк коди:

00083

Сумма суз билан:

ИККИ МИЛЛИОН СҮМ 00 ТИМИН

Тўлов мақсади:

Уқиши учун тулови

М.ў.

Бухгалтер:

Кассир:

Сумма
2 000 000,00

Дебет
10111000000011452700

Кредит
20208000300968321001



[Handwritten signature]

САНА 21.06.2024 йил

Туловчи номи	ООО "GOLD-EDUCATION-XTRA"		
Туловчининг хисоб раками	20208000300968321001	ИНН	305940457
Туловчининг банки	АНДИЖОН Ш., "ХАМКОРБАНК" АТ БАНКИНИНГ БОШ ОФФИСИ	Туловчининг банк коди	00083

СУММА 2 000 000,00

Олувчи номи Узб.Респ. Иктисодиёт ва молия вазирлигининг Ягона газна хисобвараги

Олувчининг хисоб раками 23402000300100001010

Олувчининг банки ТОШКЕНТ Ш., МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ТОШКЕНТ ШАХАР ХИСОВ-КИТОБ КАССА МАРКАЗИ

Сумма суз билан ёзилади ИККИ МИЛЛИОН СУМ

ТУЛОВ МАКСАДИ 09510~400110860222107094100350002~207272324~Якубова Диларом Тажиевнанинг Президент асарлари ва манавий тадбирлар юзасидан маруза укиб берганликлари учун тулов.

Рахбар	Ашуров И	Бош бухгалтер	Ашуров И
ТЕКШИРДИ	ТЕКШИРДИ	МАЪКУЛЛАДИ	МАЪКУЛЛАДИ
БАНК	БАНК	БАНК	БАНК

210624